

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirining
2025 yil "23" iyundagi
180-sonli buyrug'iga
ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI**

**Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy- amaliy tibbiyot
markazi**

«Tug'ma pnevmoniya»

nozologiyasi bo'yicha milliy klinik protokoli.

TOSHKENT 2025

«TASDIQLAYMAN»
Tibbiyot xodimlarining kasbiy
malakasini rivojlantirish
markazi direktori
X.A. Akilov

_____ 2025 yil

«TASDIQLAYMAN»
RIPLATM direktori
A.A. Abdukayumov

« _____ » _____ 2025 yil

«Tugʻma pnevmoniya»

nozologiyasi boʻyicha milliy klinik protokoli.

TOSHKENT 2025

Mundarija

«Tugʻma pnevmoniya» nozologiyasi boʻyicha milliy klinik protokoli.-----	5
«Tugʻma pnevmoniya» nozologiyasi boʻyicha tashxislash va davolash milliy klinik protokoli-----	10
«Tugʻma pnevmoniya» nozologiyasi boʻyicha davolash milliy klinik protokoli-----	16
Adabiyot -----	20
Ilovalar-----	26

1. KIRISH QISMI

Tugʻma pnevmoniya (TPn) - ante va/yoki intranatal davrda infisirlanish oqibatida oʻpkaning respirator qismlarini oʻtkir shikastlanishi va bola xayotining birinchi 72 soat ichida klinik - rentgenologik koʻrinishlari bilan kechadigan infeksiyon-yalligʻlanish kasalligidir.

1.1 XKT-10 bo'yicha kodlar

- R23 Tug'ma pnevmoniya
- R23.0 Virusli tug'ma pnevmoniya
- R23.1 Xlamidiyalar keltirib chiqargan tug'ma pnevmoniya
- R23.2 Stafilokokklar keltirib chiqargan tug'ma pnevmoniya
- R23.3 B guruxli streptokokklar keltirib chiqargan tug'ma pnevmoniya
- P23.4 E. coli tufayli tug'ma pnevmoniya
- P23.5 Pseudomonas tufayli tug'ma pnevmoniya
- P23.6 Boshqa bakterial agentlardan kelib chiqqan tug'ma pnevmoniya
- P23.8 Boshqa patogenlar tufayli tug'ma pnevmoniya
- P23.9 Aniqlanmagan tug'ma pnevmoniya

XKT-11 bo'yicha kodlar [<https://icd.who.int/browse/2024-01/mms/ru>]:

1.2. Ishlab chiqish va qayta ko'rish sanasi: 2024 yil va qayta ko'rish 2027 yil yoki yangi ishonchli ko'rsatmalar paydo bo'lishi bilan bog'liq. Barcha o'zgartirishlar va tavsiyalar ushbu xujjatda aks ettiriladi

1.3. Ushbu protokolni ishlab chiqishda ma'sul: Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy amaliy tibbiyot markazi, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini oshirish markazi

1.4. Ushbu klinik protokol va standartni ishlab chiqarishda ishtirok etganlar:

- | | |
|---|---|
| 1. Salixova K.Sh., t.f.d. | RIPIATM, Neonatologiya ilmiy bo'limi raxbari |
| 2. Axmedova D.I. t.f.d., professor | ToshTPI Gospital pediatriya-2 xalq tabobati bilan kafedra mudiri |
| 3. Nasirova U.F., t.f.d. | TXKMRM direktorning ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari, neonatologiya kafedra mudiri |
| 4. Raxmankulova Z.J., t.f.d., professor | ToshPTI neonatologiya kafedra mudiri |
| 5. Alimov A.V., t.f.d., professor | TXKMRM neonatologiya kafedra mudiri |
| 6. Kasimova N.A., t.f.n. | RPM direktor o'rinbosari |
| 7. Usmanova M.Sh. | RIO va BSIATM TShF |

1.5. Mualliflar ro'yxati:

- | | |
|-------------------------------|---|
| 1. Abduraxmanova F.R., t.f.n. | RIPIATM, OKETChP bo'limi mudiri |
| 2. Agzamhodjaeva B.U. t.f.n. | RIPIATM, Neonatologiya ilmiy bo'limi k.i.h. |
| 3. Saidmuradova G.J. | RIPIATM, ChRIT bo'limi mudiri |
| 4. Latipova G.G., t.f.n. | TXKMRM, neonatologiya kafedra dostenti |
| 5. Saidumarova D.S. | TXKMRM neonatologiya kafedra assistenti |
| 6. Alimova R.P., t.f.n. | RIO va BSIATM, neonatologiya bo'limi mudiri |

1.6. Resenzentlar:

- | | |
|---------------------------------------|--|
| 1. Dilmurodova K.R, t.f.d., professor | SamTU, Neonatologiya kursi bilan diplomdan keyingi ta'lim kafedra mudiri |
| 2. Xasanova S.S., t.f.d. | Evropa tibbiyot universiteti pediatriya kafedra mudiri |

mudiri

RIPIATM ilmiy kengashining 2023 yil 27 oktyabrdagi 10- sonli bayonnomasi

1.7. Taxrirlash va texnik baholash ekspertlari:

1. Shamansurova E.A. t.f.d., professor ToshPTI 1 sonli oilaviy tibbiyot, jismoniy tarbiya va fuqorolar mudofasi kafedrasini mudiri
2. Fayziev A.N., t.f.n., dotsent ToshPTI 1 sonli oilaviy tibbiyot, jismoniy tarbiya va fuqorolar mudofasi kafedrasini mudiri

Mazkur klinik protokol va standartlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Basitxanova E.I, Tibbiy sug'urta boshqarmasi boshlig'i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi boshlig'i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko'magi asosida ishlab chiqilgan.

1.10. Klinik protokol foydalanuvchilari: neonatologlar, pediatrlar, oilaviy shifokorlar, tibbiyot oliygoxlar talabalari, magistrlar, klinik ordinatorlar va aspirantlar. Ushbu protokol yangi tug'ilgan chaqaloqlarda tug'ma pnevmoniyani tashxislash va davolash faoliyatini olib boradigan shifokorlarga mo'ljallangan.

1.11. Bemorlar kategoriyasi: Tug'ma pnevmoniyali muddatida va muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlar.

1.12. Qisqartmalar ro'yxati

AD	arterial bosim
----	----------------

AAR	The American Academy of Pediatrics (Amerika Pediatriya Akademiyasi)
ABT	Antibakterial terapiya
BLD	Bronx- o'pka displaziyasi
VAP	Ventilyator assosirlangan pnevmoniya
GYo	gestasion yosh
SO'V	Sun'iy o'pka ventilyasiyasi
KOS	kislota-ishqor xolati
TM	Tibbiyot muassasa
TPn	Tug'ma pnevmoniya
JKV	Juda kam vazn
Ch va KVChPB	Chaqaloqlar va kam vaznli chaqaloqlar patologiyasi bo'limi
NSG	Neyrosonograafiya
MNT	Markaziy nerv tizimi
NOS	Nafas olish soni
YuUS	Yurak urish soni
EKV	Ekstremal kam vazn
XII	Xomila ichi infeksiyasi
XKT-10	10-chi Xalqaro Kasalliklar Tasniflanishi
ChRIT	Chaqaloqlar reanimatsiya va intensiv terapiyasi
QQQ	Bosh miyada qorinchalar aro qon quyilishi
O'YuChOV	O'pkani yuqori chastotali ossilyator ventilyasiyasi
SRAR	continuous positive airway pressure/ respirator terapiya usuli
INSURE	Surfaktant yuborish usuli ((INTubate-SURfactant- Extubate)

Dalillarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi

1	Referens usul yordamida nazorat ostida o'tkazilgan tadqiqotlarning tizimli sharhlari yoki meta-tahlil yordamida randomizasiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli sharhi
2	Referens usul nazorati bilan o'tkazilgan ayrim tadqiqotlar yoki ayrim randomizasiyalangan klinik tadqiqotlar va har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi, meta-tahlil yordamida randomizasiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqilishi bundan mustasno
3	Referens usul yordamida izchil nazoratsiz yoki o'rganilayotgan usuldan mustaqil bo'lmagan referens usulo yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar yoki randomizasiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan, kogortli tadqiqotlar
4	Qiyoslanmagan tadqiqotlar, klinik holat tavsifi
5	Muolajaning ta'sir mexanizmi asoslari yoki ekspertlar xulosasi

Tavsiyalarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi

A	Kuchli tavsiya (barcha ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilgan)
B	Shartli tavsiya (ayrim ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallaydi, ayrim tadqiqotlarning metodologik sifati yuqori yoki qoniqarli va/yoki qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilmagan)
C	Kuchsiz tavsiya (sifatli dalillar keltirilmagan (ko‘rib chiqilgan samaradorlik mezonlari (natijalar) muhim o‘rinni egallamaydi, barcha tadqiqotlarning metodologik sifati past va qiziqtirayotgan natijalar bo‘yicha xulosalari kelishilmagan)

2. ASOSIY QISMI

2.1. Kasallik epidemiologiyasi

Tug‘ma pnevmoniya - turli mikroorganizmlar chaqiradigan o‘lim xavfi yuqori bo‘lgan jiddiy nafas yo‘llarining infeksiyon patologiyasi. 1/3 xolatlarda tug‘ma pnevmoniya neonatal sepsisning bir qismi bo‘lishi mumkin (Sourabh Dutta, Neonatal pneumonia. Journal of neonatology. Vol.21, №3, 2007).

Tug‘ma pnevmoniya uchrash chastotasi 1-35% tashkil qiladi (Friedrich Reiterer, Neonatal pneumonia, 2013), 1% muddatda va 15% muddatidan oldin tug‘ilgan chaqaloqlarda rivojlanadi. Erta boshlangan pnevmoniyalar (0-3 kun) tirik tug‘ilganlarning 0,5% da uchraydi (Thomas Hansen et al., Neonatal pneumonia, Chapter 56 from Avertys diseases of newborn, 8 ed, p.648-662). Ushbu kasallik butun dunyo bo‘ylab yangi tug‘ilgan chaqaloqlar o‘limining 10-25% tashkil qiladi (Roger G Faix, Congenital pneumonia, 2009).

2.2. Kasallikning etiologiyasi va patogenezi (1 ilovada berilgan)

Tug‘ma pnevmoniyaning qo‘zg‘atuvchilari quyidagilar:

- **bakteriyalar:** *Escherichia colli*, *Enterobacter aerogenes*, *Klebsiella spp*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Group B Streptococcus*, *Staphylococcus epidermidis*, *Staphylococcus aureus*, *Haemophilus influenza*, *Klebsiella pneumoniae*, *Pneumococcus*

- **atipik qo‘zg‘atuvchilar:** *Chlamydia trachomatis*, *Ureaplasma urealyticum*, *Micoplasma hominis*, *Micoplasma pneumoniae*, *Listeria monocytogenes*, *Treponema pallidum*, *Micobacterium tuberculosis*

- **viruslar:** *Herpes simplex virus*, *Cytomegalovirus (CMV)*, *Respiratory syncytial virus*, *Rubella*

- **zamburug‘lar:** *Candida spp*.

Tug‘ma pnevmoniya rivojlanishida onaning siydik va reproduktiv tizimlarining infeksiyon - yallig‘lanish kasalliklari (pielonefrit, xorioamnionit, endometrit va boshqalar); homila etukligi,

bronxial daraxt rivojlanish nuqsonlari, xomila ichi gipoksiyasi, tug‘ilishda asfiksiya, mekonial aspirasiyasi katta rol o‘ynaydi. Erta tug‘ilish, respirator distress-sindromi (RDS), xomila gipoksiyasi o‘pka to‘qimalarining funksional, morfologik va immunologik etilmasligiga sabab bo‘lib, yuqumli jarayonning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Kasallik patogenning transplacentar kirishi yoki bolaning o‘pkalariga amniotik suyuqliklar kirish natijasida, ularni infisirlaganda (endometrit, xorioamnionit va boshqalar bilan kasallangan), va tug‘ruq yo‘llaridagi infisirlangan suyuqlikni aspirasiyasida rivojlanadi [1,3]. Distal nafas yo‘llarida bakteriyalar yoki viruslarning ko‘payishi va ular bilan bog‘liq yallig‘lanish reaksiyasi gaz almashinuvini buzadigan hujayra shikastlanishiga olib keladi, o‘pkada qon aylanishini o‘zgartiradi va normal nafas olish mexanikasiga to‘sqinlik qiladi. Alveolalarning sirtqi shikastlanishi surfaktant ta'siriga xalaqit beradi, o‘pka tomirlaridan suyuqlikning transudasiyasiga yordam beradi, bu o‘pka shishiga va oxir-oqibat alveolalarning kollapsiga olib keladi. Bakterial parchalanish mahsulotlari va hujayra elementlarining nafas yo‘llarida to‘planishi (neytrofillar, makrofaglar) yallig‘lanish vositachilari ta'sirida silliq mushaklarning qisqarishi bilan birgalikda samarali ventilyasiyani yomonlashtiradi va atelektazning rivojlanishiga, "havo tutqichlari" paydo bo‘lishiga va keyinchalik ventilyasiya va perfuziyani mos kelmasligiga olib keladi. Faollashgan endotelial hujayralar va trombositlar tomonidan chiqariladigan yallig‘lanish prokoagulyantlar va vazokonstriktorlar o‘pkada qon tomir qarshiligi kuchaytiradi, o‘pka arteriyasida bosimning oshishiga olib keladi. Surfaktant etishmovchiligi kuchayadi [8,9]. Bu o‘zgarishlar giperkapniya, gipoksemiya, aralash asidoz va gipoksiya rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Gipoksiya, asidoz kuchayishi va mikrosirkulyasiya buzilishi natijasida juda tez ko‘p a'zolar etishmovchiligi rivojlanadi, dastlab yurak - nafas, keyin boshqa organlar.

2.3. Kasallik tasniflanishi (1 ilovada ko‘rsatilgan)

Tug‘ma pnevmoniyalar tasniflanadi:

- *Paydo bo‘lish vaqti bo‘yicha:* xomila ichi (tug‘ma, hayotning dastlabki 72 soatida o‘zini namoyon qilgan) va neonatal (erta va kech);

Etiologiyasi bo‘yicha: virusli, bakterial, parazitlar, zamburug‘li, aralash;

- *Jarayonning tarqalishi bo‘yicha:* fokal, segmentar, lobar, bir tomonlama, ikki tomonlama;
- *Jarayonning og‘irligi bo‘yicha:* engil, o‘rtacha, og‘ir;
- *Kechishi bo‘yicha:* o‘tkir, subakut, cho‘zilgan

2.4. Klinik ko‘rinishi

Tug'ma pnevmoniyaning dastlabki klinik belgilari o'ziga xos emas. Ko'rik vaqtida infeksiyon toksikozning umumiy belgilari aniqlanadi: termoregulyasiyaning buzilishi (beqaror tana harorati ($\geq 38,50C$ yoki $\leq 36,00C$)), terining "marmarsimon", kulrang va/yoki terining oqish bo'lishi, hayajon yoki ovqatlanishi bilan kuchayadigan perioral sianoz va /yoki akrosianoz, to'qimalarning turgori pastligi, so'rish refleksining pasayishi yoki yo'qligi, ovqatlanishdan bosh tortish, sustlik, mushaklarning gipotoniyasi yoki aksincha, neyroreflektor qo'zg'aluvchanlikni kuchayishi, taxikardiya > 180 zarba/daq, yurak tovushlarining bo'g'iqligi, qorinni damligi; enteral oziqlanishga nisbatan muhosasizlik; Nafas etishmovchiligi belgilari: nafas olishi tezlashishi (daqiqada > 60) yoki apnoe epizodlari (nafas olishda pauza > 20 s), ko'krak qafasining egiluvchan joylarining tortilishi, burun qanotlarining erilishi, ekspirator nola (granting), bradipnoe; ko'karishi, qonda kislorod saturasiyasining tushib ketishi, og'izdan ko'pikli ajralma chiqishi mumkin. Auskultasiyada nafas olishning sustlashishi, turli o'lchamdagi xirillashlar, krepitasiyalar eshinishi mumkin.

2.5. Muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarda tug'ma pnevmoniya klinikasining xususiyatlari

- Intoksikasiya va nafas olish etishmovchiligi belgilari ustunligi.
- Markaziy asab tizimining sustligi, letargiya, adinamiya, regurgitasiya, qusish va vazn yo'qotish.
- Nafas olishda aritmiya, apnoe hurujlari va davriy Cheyne-Stokes nafasini kuzatilishi
- Gipotermiyaga moyillik
- Pnevmoniya ko'pincha homila doimiy fetal qon aylanishi sindromi, periferik qon aylanishining buzilishi bilan murakkablashishi.
- SDR-pnevmoniya-sepsis ko'rinishda ko'pincha bo'lishi.
- Pnevmoniyaning boshqa kasalliklar bilan birga kelishi: intrakranial qonashlar, enterokolit.
- Asoratlarning yuqori chastotasi: DVC sindrom, buyrak osti bezlari etishmovchiligi va boshqalar.

3.KASALLIKNI TASHXISLASH

Tashxisni tasdiqlash uchun ikkita mezon guruxi qo'llaniladi: **asosiy va yordamchi**. Tug'ma pnevmoniya tashxisi asosiy va/yoki 3 yoki undan ko'p yordamchi tashxislash belgilari aniqlangan taqdirda tasdiqlanishi mumkin.

3.1. Tug‘ma pnevmoniya tashxisini qo‘yish mezonlari

Tashxisni tasdiqlash uchun rentgenologik o‘zgarishlar va/yoki klinik va laborator ma'lumotlarining mavjudligi talab qilinadi. (1 jadval).

Tug‘ma pnevmoniyaning asosiy diagnostik mezoni:

Ko‘krak qafasi organlari rentgenografiyasida infiltrativ va o‘choqli soyalarning bo‘lishi (ID 1A).

- rentgenogrammada o‘pka to‘qimalarining shaffofligining ikki tomonlama pasayishi, asosiy havo yo‘llarida havo hosil bo‘lgan rentgen shaffof zonalar (havo bronxogrammalari) mavjudligi
- o‘choqli, o‘choqli-konfluent yoki segmentar xarakterli gomogen infiltrativ o‘zgarishlar tipik patogenlar (pnevmokokk va boshqalar) keltirib chiqaradigan pnevmoniya haqidagi klinik taxminni tasdiqlashga imkon beradi, va kichik bir hil bo‘lmagan infiltratlar, ularning ikki tomonlama lokalizatsiyasi, tomir-interstisial naqshning kuchayishi, qoida tariqasida, kasallikning atipik etiologiyasi (mikoplazmosistoz, pnevmokokkoz) foydasiga guvohlik beradi.
- o‘pka hajmi normal, plevral suyuqlik bo‘lishi mumkin
- o‘ikastlar assimetrik va mahalliyashtirilgan
- stafilokokkli pnevmoniyada havo bilan to‘ldirilgan bo‘shliqlar (bullalar) topiladi.

Tug‘ma pnevmoniyaning yordamchi tashxislash mezonlari:

Quyidagi jadval tug‘ma pnevmoniyaning yordamchi tashxislash mezonlari sifatida ishlatiladi. Kamida ikkita klinik va bitta laborator belgisi mavjudligi bolada infeksiyon jarayonning borligini ko‘rsatadi.

Jadval 1. 44 xafta postkonseptual eshidan kichik bolalarda infeksiyon jarayonni kechishining klinik-laborator belgilari.

Infeksiyaning klinik belgilari
Respirator buzilishlar: <ul style="list-style-type: none">• Apnoe epizodlari (nafas olishda pauza >20 s) <i>va/yoki</i> <ul style="list-style-type: none">• Taxipnoe epizodlari <i>va/yoki</i> <ul style="list-style-type: none">• Kislorodga muxtojligi oshishi• Respirator qo‘llab quvvatlashga extiej
Yurak qon tomir etishmovchiligining ko‘rinishlari : <ul style="list-style-type: none">• bradikardiya <i>va/yoki</i>

<ul style="list-style-type: none"> • taxikardiya • boshqa ritm buzilishlari • arterial gipotenziya • teri qoplamlari marmarsimonligi • qon aylanishning sentralizatsiyasi teri perfuziyasi buzilishlari bilan i koji (“oq dog”) simptomi 3 sek ko‘p)
<p>Tana xarorati o‘zgarishi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • tana xarorati 36° S kam yoki gipertermiya 38,5°S dan yuqori; va/yoki • tana xarorati beqarorligi
<p>Buyrak etishmovchiligi namoyon bo‘lishi</p> <ul style="list-style-type: none"> • hayotning birinchi kunida diurezning soatiga 0,5 ml/kg dan, hayotning birinchi kundan kattaroq yoshda soatiga 1 ml/kg dan kam bo‘lishi.
<p>Teri va ter osti yog‘ qatlamlari o‘zgarishlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Teri qoplamlarining rangi kulrang • sklerema
<p>Oshqozon-ichak traktining tomonidan namoyon bo‘lishi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ovqatning xazm bo‘lmasligi • qorni dam bo‘lishi • auskultasiyada peristaltikaning sustlashishi yoki yo‘qligi
<p>Nevrologik ko‘rinishlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • sustlik • gipotoniya • giperesteziya • bezovtalik • talvasa sindromi
<p>Boshqa ko‘rinishlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • 1 chi sutkaldan plevral bo‘shliqlarda suyuqlik bo‘lishi • erta boshlangan sariqlik • gepatomegaliya, splenomegaliya • birinchi sutkaldan bolada boshqa yiring– yallig‘lanish uchoqlar bo‘lishi
<p>Infektsion jarayonni laborator belgilari</p>
<p>Leykositlar soni:</p> <ul style="list-style-type: none"> • leykopeniya 5×10^9 /l dan kam yoki • hayotning 1-2-kunlarida leykositoz 30×10^9/l dan, 3-7-kunlarida 20×10^9/l dan ortiq.
<p>Neytrofillar absolyut soni:</p> <ul style="list-style-type: none"> • neytrofez 20×10^9 /l dan ko‘p • neytropeniya <p>Yosh shakllarni neytrofillarning umumiy soniga nisbati (neytrofil indeksi): 0,2 dan ortiq</p>
<p>Neytrofillar morfologiyasining xususiyatlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • toksik donadorlik • vakuolizatsiya • Dolli tanachalarining paydo bo‘lishi (sitoplazmadagi bazofil joylar)
<p>Trombositopeniya</p> <ul style="list-style-type: none"> • 150×10^9 /l dan kam

<p>Yallig'lanish markerlarining miqdori oshishi:</p> <ul style="list-style-type: none"> • qondagi CRO darajasining oshishi • hayotning dastlabki 72 soatida prokalsitonin (PCT) $\geq 2,5$ ng/ml <p>Metabolik asidoz:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Qon zardobida laktat 2 mmol/l dan ortiq bo'lishi
<p>Plasenta tekshiruvi: plasentadagi o'zgarishlar, masalan, deseduit, funizit, plasenta to'qimalarining infiltratsiyasi chaqaloqda bilvosita yuqumli jarayon amalga oshishini ko'rsatishi mumkin va chaqaloqda pnevmoniyani tashxislashda qo'shimcha omil hisoblanadi (chaqaloqlarni parvarish qiladigan muassasalarni davolash darajasiga qarab).</p>
<p>Kamida ikki marta qayd etilgan glyukoza intolerantligi epizodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • gipoglikemiya 2,6 mmol/l dan kam • giperqlikemiya 10 mmol/l dan ortiq
<p>Klinik siydik tahlilida yallig'lanish belgilari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ko'rish sohasida 10-15 dan ortiq leykosituriya bilan birgalikda bakteriuriya va proteinuriya (oqsil miqdori 0,2 mg/l dan ortiq) - 48 soatdan keyin

3.2 Anamnez:

Anamnestik ma'lumotlar (xavf omillari) erta neonatal sepsis xavf omillariga teng (**ID-3 B**):

- onada tug'ruqdagi infeksiyon jaraen.
- onani tug'ruq yo'llari V gurux streptokokklar bilan kolonizasiyalanishi (xomiladorlikning 35-36 xaftasida)
- muddatidan oldingi tug'ruq
- qog'onoq suvlarni barvaqt ketishi (suvsizlik davri 18 soatdan ortiq)
- tug'ruq davrida onani tana xarorati 38°S dan oshiq ko'tarilishi
- onada ushbu xomiladorlikda bakteriuriya
- xorionamnionit
- platsenta strukturasi o'zgarishi
- xomila KTG sini o'zgarishi: fetal distress belgilari bo'lishi
- kam vaznli xomila
- cho'ziluvchan tug'ruq
- memranalar yorilgandan so'ng tez-tez qin tekshiruvlari
- tug'ruqdan oldin mekoneal aspirasiya
- xomila va chaqaloqda jarroxlik davolash

3.3. Jismoniy tekshiruv

Nafas etishmovchiligi bor va tugʻma pnevmoniyaga shubxali chaqaloqqa vizual terapevtik tekshiruv **tavsiya etiladi (ID-3C)**

Barcha klinik koʻrinishlar nospesifik va ular chaqaloqlarda nafas olish tizimining boshqa kasalliklari fonida kuzatilishi mumkin, shuning uchun tugʻma pnevmoniyani tashxislashda infeksiyon jarayonining xavf omillari, rentgenologik va laborator tekshiruvlari katta ahamiyatga ega.

Umumiy qabul qilingan **klinik shkalalar** (Silverman-Andersen, Downs) yordamida nafas etishmovchiligi darajasini baholash tavsiya etiladi. **(ID 2B)**. Tugʻma pnevmoniya bilan erta tugʻilgan chaqaloqlarda nafas olish buzilishining ogʻirligini klinik baholash Silverman shkalasi, muddatda tugʻilgan chaqaloqlarda - Dauns (Downes) shkalasi yordamida amalga oshiriladi (*1- ilovada koʻrsatilgan*).

3.4. Laborator tashxislash tekshiruvlari

- Tugʻma pnevmoniyaga shubha qilingan chaqaloqning **qonini** mikrobiologik (madaniy) tekshiruvdan oʻtkazish, patogenni aniqlash va antibakterial terapiya taktikasini bilish uchun ajratilgan floraning antibiotiklarga sezgirligini aniqlash tavsiya etiladi **(ID 3C)**.
- Tugʻma pnevmoniyaga shubha qilingan chaqaloq traxeya intubasiyasi oʻtkazilganda **balgʻamini** aerob va anaerob mikroorganizmlarga, zamburugʻlarga mikrobiologik (madaniy) tekshiruvdan oʻtkazish va antibakterial terapiya taktikasini bilish uchun ajratilgan floraning antibiotiklarga sezgirligini aniqlash tavsiya etiladi **(ID 3C)**.
- Tugʻma pnevmoniyaga shubha boʻlgan yangi tugʻilgan chaqaloqqa leykositlar sonini differensial sanash bilan **umumiy qon taxlili** qilish, yalligʻlanish oʻzgarishlarini aniqlash uchun neytrofillar indeksini hisoblash, tugʻma pnevmoniya tashxisi boʻlmaganda 48-72 soat ichida takroriy va antibakterial terapiyani bekor qilish yoki uzaytirish toʻgʻrisida qaror qabul qilish maqsadda antibakterial terapiya kursi oxirida taxlil qilish tavsiya etiladi. **(ID 3B)**.
- Qonda **C-reaktiv oqsil (CRO)** miqdorini hayotning 6 soatidan kechiktirmasdan tekshirish tavsiya etiladi. **(ID 2B)**.

***Sharxlar:** Agar bolaning hayotining birinchi kunida tashxis qoʻyish qiyin boʻlsa, CRO darajasini aniqlash va klinik qon taxlili 48 soatdan keyin takrorlash tavsiya etiladi. RDS salbiy yalligʻlanish belgilari va salbiy qon mikrobiologik testlari bilan tavsiflanadi. CRO darajasining ortishi toʻliq tugʻilgan chaqaloqlarda infeksiyaning dastlabki belgisidir, erta tugʻilgan chaqaloqlarning qonida uning konsentrasiyasi va ulardagi infeksiyon patologiyaning mavjudligi oʻrtasidagi oʻxshash bogʻliqlik aniq isbotlanmagan.*

Muayyan tibbiy tashkilotning imkoniyatlariga qarab boshqa yallig‘lanish belgilaridan qo‘shimcha foydalanish ham qabul qilinadi (prokalsitonin, presepsin, interleykin -6ni qondagi miqdori). Turli xil yallig‘lanish belgilarining kombinasiyasi infeksiyon holatni aniqlashning diagnostik imkoniyatini oshiradi.

- Nafas etishmovchiligi bo‘lgan yangi tug‘ilgan chaqaloqda gipoksiyani, metabolik buzilishlarni baholash maqsadda **kislota-ishqor balansini, laktat miqdorini, glyukozani** aniqlash, keyingi respirator terapiyasi taktikasini va parametrlarni sozlash uchun kislota-ishqor balansini va qon gazlarini takrorlash tavsiya etiladi. **(ID 3C)**.

3.5. Instrumental tashxislash tekshiruvlari

- Nafas olish buzilishlari bo‘lgan barcha yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga o‘pka to‘qimalaridagi o‘zgarishlarni baholash va tug‘ma pnevmoniyani tashxislash uchun **ko‘krak qafasi rentgenografiyasidan** o‘tish tavsiya etiladi [1,3,17,19,41,45,81,82]. **(ID 1A)**

Sharxlar: Tug‘ma pnevmoniya tashxisini qo‘yish mezonlari bo‘limiga o‘ting.

- Nafas olish buzilishlari bo‘lgan yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga o‘pkaning tug‘ma nuqsonlari, surfaktant oqsillarining tug‘ma etishmovchiligi bilan differensial tashxislash uchun **ko‘krak qafasining selektiv kompyuter tomografiyasi** tavsiya etiladi. **(ID 3B)**
- Tug‘ma pnevmoniya bilan og‘rigan yangi tug‘ilgan chaqaloqqa tug‘ma pnevmoniya asoratlarini aniqlash uchun **neyrosonografiya, exokardiografiya (Exo-KG), qorin bo‘shlig‘i organlarining ultratovush tekshiruvi (kompleks), buyraklar va buyrak usti bezlarining ultratovush tekshiruvidan** o‘tish tavsiya etiladi (tibbiy muassasaning texnik imkoniyatlariga qarab). **(ID 3B)**.

Sharxlar: Turli organlar va tizimlarning xamrox buzilishlarida neyrosonografiya (NSG), exokardiografiya (Exo-KG), qorin bo‘shlig‘i, buyraklar va buyrak usti bezlarining UTTsini o‘tkazish simptomatik terapiyani o‘z vaqtida tayinlashga va korreksiyalashga yordam beradi.

- Tug‘ma pnevmoniyali chaqaloqda yurak faoliyatida biron bir o‘zgarish bo‘lsa: aritmiya, og‘ir bradi- va taxikardiya, va boshqalar, yurak ritmini buzilishlari tabiyatini aniqlash maqsadda **elektrokardiografiya** qilish tavsiya etiladi
- Nafas olish buzilishlari bo‘lgan chaqaloqda pnevmoniyaning belgilarini aniklash maqsadda **o‘pkaning selektiv ultratovush tekshiruvini** malakali mutaxassis ishtirokida o‘tkazish tavsiya etiladi **(ID 2B)**

Sharxlar: pnevmoniyaning ultratovush belgilari zichlanish va havo bronxogrammasi dinamikasi, V-chiziqlari va plevral suyuqlik bilan ko‘rinishi, anomal plevra chiziqlari va

o'pkaning sirpanishning pasayishi kuzatilishi mumkin. Meta-tahlil natijalariga ko'ra, o'pkaning ultratovush tekshiruvi rentgen tekshiruidan ko'ra aniqroq usul hisoblanadi.

- Nafas olish buzilishlari bo'lgan chaqaloqda simptomatik va etiotrop terapiyani o'z vaqtida qo'llash uchun **asosiy ko'rsatkichlarni** noinvaziv monitoring, ayniqsa, respirator terapiyasiga muxtoj bo'lgan chaqaloqlarda qilish (YuUS, NOS, qon bosimi, SpO₂, tana harorati, diurez) tavsiya etiladi (**ID 3C**).

3.6. Kasallikni differensial tashxislash

- Chaqaloqlar tranzitor taxipnoesi.
- Respirator Distress Sindromi.
- Erta neonatal sepsis.
- Mekoneal aspirasiya sindromi.
- Aspirasiyaning boshqa turlari (qog'onoq suvlari, qon, sut bilan).
- Xavo oqishi sindromi.
- Chaqaloqlar doimiy o'pka gipertenziyasi.
- O'pkaning tug'ma rivojlanish nuqsonlari (kistozli adenomatoz, o'pka aplaziya, gipoplaziyasi va boshqalar).
- Tug'ma diafragmal churrasi.
- Tug'ma yurak nuqsoni.
- Ekstrapulmonar genezli nafas buzilishlarning boshqa sabablari.

4.TUG'MA PNEVMONIYANI DAVOLASH

Chaqaloqlarni tug'ma pnevmoniya bilan davolash shifoxona sharoitida amalga oshiriladi. Agar tug'ma pnevmoniyaning klinik belgilari paydo bo'lsa, yangi tug'ilgan chaqaloqning axvolining og'irligiga qarab chaqaloqlar reanimasiya va intensiv terapiyasi bo'limida (ChRIT) / intensiv terapiya palatasida (ITP) yoki chaqaloqlar patologiyasi bo'limida (ChPB) davolanaladi.

4.1. Nomedikamentoz davolash

Nomedikamentoz davolash - chaqaloqlarni parvarish qilish uchun maqbul sharoitlar yaratish o'z ichiga oladi:

- Chaqaloqni qo'llab quvvatlovchi parvarishi: optimal xarorat rejimi, gipotermiya profilaktikasi, shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi, chaqaloq parvarishiga onani jalb qilish, bolani xolatini tez tez o'zgartirib turish, erkin yo'rgaklash.

- Xar 3 soatda nafas etishmovchiligi darajasini baxolash bilan birga asosiy xayotiy ko'rsatgichlarni monitoring (tana xarorati, nafas olish soni (NOS), yurak urish soni (YuUS), qonni kislorodga to'yinganlik darajasi (SpO2)) qilish.
- Oziqlantirish usuli bolaning ahvoriga qarab belgilanadi: nafas olishi va gemodinamikasi barqarorlashgunga qadar parenteral oziqlantirish, so'ngra qisman parenteral, keyin esa enteral ovqatlanishga o'tish.
- Havo yo'llarining o'tkazuvchanligini ta'minlash: chuqur aspirasiyadan qochgan xolda balg'amni so'rib olish, ko'krak qafasining yumshoq tebratish va perkussiya qilish, nafas yo'llarining quyuuq tarkibi balg'am uchun aerozol mukolitiklarini qo'llash.

4.2. Medikamentoz davolash:

Tug'ma pnevmoniyani davolash bir vaqtning o'zida bir nechta yo'nalishdagi chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak.

- **Etiotrop terapiya** – kasallikning qo'zg'atuvchisiga bevosita ta'sir qilish
- **Patogenetik terapiya** – nafas etishmovchiligini davolash;
- **Simptomatik terapiya** - metabolik buzilishlarni, organ va tizimlar etishmovchiligini korreksiya qilish.

4.2.1. Etiotrop terapiyasi (2 ilovada berilgan).

Tug'ma pnevmoniya yoki tug'ma pnevmoniyaga shubha qilingan chaqaloqlarda asosiy etiologik davolash uchun **antibakterial terapiya** tavsiya etiladi. **(ID 1B).**

Sharxlar: *Tug'ma pnevmoniya rivojlanishiga shubha qilinganda antibakterial terapiya (ABT) tug'ilgandan keyin imkon qadar tezroq nafas olish bo'zishlari bo'lgan bolalarning quyidagi toifalari uchun ko'rsatiladi: juda kam va ekstremal kam vaznli (JKVB, EKVB) bemorlar, shuningdek tug'ilganidan invaziv respirator terapiyasini talab qiladigan chaqaloqlar. ABTni tug'ilgandan keyin 2 soatda kechiktirmasdan boshlash afzalroqdir. Boshlang'ich sxemaning dori-darmonlarni birinchi yuborilishi bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Tug'ilganda og'irligi 1500 g dan ortiq bo'lgan chaqaloqlarga ABT ko'rsatmalarga ko'ra dastlabki klinik va laborator tekshiruv natijalariga ko'ra buyuriladi*

ABTning davomiyligi va taktikasi har bir holatda alohida belgilanadi va bolaning ahvolidan og'irligiga va klinik - laborator ma'lumotlarining normallashtiruviga bog'liq. Antibiotikoterapiyasini bekor qilish yoki kuchaytirish to'g'risida qaror qabul qilish uchun yallig'lanish belgilarini kuzatish bilan klinik va laborator tekshiruv o'tkaziladi. Yallig'lanish

belgilari va klinik qon taxlillari darajasi normallashtirganda, ABT to'xtatiladi. Axvoli yaxshilanishi va laborator ma'lumotlari bilan o'pka naqshlarining kuchayishi va gipoventiliya joylari ko'rinishidagi qoldiq rentgenologik o'zgarishlarning davom etishi terapiyani davom ettirish uchun ko'rsatma emas.

- Agar pnevmoniyaning sababi klinik va laborator ma'lumotlariga ko'ra noaniq bo'lsa, davolash penisillinlar yoki yarim sintetik penisillinlarni gentamisin bilan tomir ichiga yuborish bilan boshlanadi. Klavulan kislotasining ichak devoriga, ayniqsa, erta tug'ilgan chaqaloqlarda mumkin bo'lgan salbiy ta'siri tufayli amoksisillin + klavulan kislotasi bo'lgan preparatlarni buyurish tavsiya etilmaydi.

- Agar davolanish 48 soat ichida kutilgan natijani bermasa yoki bolaning ahvoli yomonlashsa, aminoglikozidlar bilan birgalikda uchinchi avlod sefalosporinlariga o'ting.

- Aspirasion sindromi fonida rivojlanadigan pnevmoniya uchun etiotrop terapiya anaerob florani bosadigan antibakterial dorilarni o'z ichiga olishi kerak (monoterapiya sifatida himoyalangan aminopenisillinlar yoki karbapenemlarni o'z ichiga olgan kombinasiyaga afzallik beriladi).

- Xlamidiya va mikoplazma sabab bo'lgan pnevmoniyaning etiotrop terapiyasi makrolid antibiotiklari bilan tomir ichiga infuziyalar shaklida (azitromisin, eritromisin) amalga oshiriladi.

- Sodda herpes virusi keltirib chiqaradigan pnevmoniya uchun asiklovir bilan davolash amalga oshiriladi: vena ichiga 20 mg/kg dozada har 8 soatda, kurs davomiyligi 21 kun. **(ID 2A)**

Antibiotikogramma natijalari olingandan so'ng davolanish korreksiya qilinadi.

4.2.2. Patogenetik asoslangan intensiv terapiya

- Nafas olish buzilishlari bo'lgan muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarga alveolyar nafas olishni yaxshilash, respirator qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojni va kislorodga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish uchun tug'ilish vaznidan qat'iy nazar, ko'rsatmalarga muvofiq **o'pka surfaktant preparatlarini** yuborish tavsiya etiladi **(ID 1A)**

Sharxlar: O'pka surfaktantlarni tug'ma pnevmoniya bilan asoratlangan RDS bo'lgan erta tug'ilgan chaqaloqlarda qo'llanilishi mumkin, ammo yuqori doza yoki qabul qilish chastotasi talab qilinadi.

- Respirator terapiyani tug'ruq zali sharoitida boshlash tavsiya etiladi **(ID 1B)**

Sharxlar: Respirator terapiya chaqaloqlarda, shu jumladar, tug'ma pnevmoniyali chaqaloqlarda nafas buzilishlarini davolashda asosiy yo'nalishi xisoblanadi.

- Tug'ma pnevmoniyali va kislorodga tobe chaqaloqlarga nafas etishmovchiligini davolash va o'pkaning zararlanishini oldini olish maqsadda **noinvaziv respirator terapiyasini** (NIPPV, SRAR) o'tkazish tavsiya etiladi. **(ID 1A)**

- Nafas olish etishmovchiligi bo'lgan chaqaloqlarda noinvaziv respirator terapiyasi muvaffaqiyatsiz bo'lsa, nafas etishmovchiligini davolash uchun **invaziv sun'iy o'pka ventilyasiyasi (SO'V)** tavsiya etiladi. **(ID 1A)**

Sharxlar: Invaziv SO'V davomiyligini minimallashtirilish kerak. Nafas olish hajmini nazorat qilish bilan SO'Vni amalga oshirish kerak, bu uning davomiyligini kamaytiradi va BO'D va bosh miyada qorinchalar aro qon quyilishi (VJK) kabi asoratlarni kamaytiradi. Chaqaloqlarda ushbu turdagi respirator terapiyasini muvaffaqiyatli qo'llashning zaruriy sharti qonning gaz tarkibini muntazam ravishda kuzatib borish imkoniyatidir. SO'V dagi chaqaloqlarga selektiv sedasiya va analgeziya o'tkaziladi. An'anaviy SO'V samarasizligi yuqori chastotali ossillyator o'pka ventilyasiyaga (YuChOO'V) o'tish uchun ko'rsatma hisoblanadi. YuChOO'V da alveolyar hajmning barqarorlashuvi tufayli atelektazning kamayishi, gaz almashinuvi maydonining oshishi va o'pka qon oqimining yaxshilanishi kuzatiladi. To'g'ri olib borilgan terapiya natijasida ventilyasiya-perfuziya nisbati adekvat bo'ladi, bu o'pkada gaz almashinuvining yaxshilanishiga olib keladi.

- Tug'ruq zalida chaqaloqlarga birlamchi va reanimasion yordam ko'rsatganda YuUS va SpO2 ko'rsatgichlarni pulsoksimetriya usuli bilan monitoring qilish **(ID 1B)**.

4.2.3. Simptomatik terapiya (3 ilovada berilgan).

